



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

АГПИ
Научный вестник



ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 2 2026 **aprel**

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun:

Telegram: ADPIilmiyxabarnoma_bot

Electron manzil: eduservis@gmail.com

2/2

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

A.E. Zaynobiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva - filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D'.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.S. Karimov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

M.I. O'rinboyev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Sh. Uktamov- geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muharrirlar:

O. Karimov,

U. Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Artikova M.B., Turaboyeva M.R. Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida	4
Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	9
Hasanov Sh.A. Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida	15
Shabdullayeva L.O. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari	20
Agzamova N.O. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri	30
Matmusayev T.M. Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi	35
Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	42
Alimov J.A., Shermuhammedov M. Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish	47
Axunov U.R. Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash	51
Shabdullayeva L.O. Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari	55
Karimova M.M. Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni	62
Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'. Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	67
Hasanov Sh.A. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida	71
Ismonov X.B., Azimjonova U.Z. Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati	78
Maxmudov A.O. Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish	84
Abduraxmonova D.Sh. Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari	89
Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	93
Madaminova G.G. Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari	100
Mashrabova B.N. Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language	106
Nishonov N.A. O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari	111
Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L. Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati	115
Uraimov S.R., Xakimjonov M.X. Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish	120
Yoqubjonov N.G'. Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarni shakllantirish	126
Jo'rayeva D.I. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi	130

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A. Yangi O'zbekistonda sud huquq tizimidagi islohatlar	135
Raximova Z.X. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida	142
Uzaqova N.M. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari	149
Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash	153
Mutallibjonov U.I. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni	157

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A. Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	162
Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш. Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий	169
Umarov A.V. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari	173
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	179
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	183
Mamadaliyev B.K. Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	187
Jamoldinova D.A. Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi	192
Ablazova K.S. Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi	196

UO'K: 811.III.A-15

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA PEDAGOGNING QARASHLARI VA O'QITISH METODLARIGA BU QARASHLARNING TA'SIRI

Agzamova Nodira Obiddinovna
Diplomat University

Annotatsiya.

Dunyoning qator mamlakatlarida, ular orasida O'zbekistonda ham xorijiy tillarni o'qitishda o'quvchi ehtiyojlariga qaratilgan zamonaviy metodikalarni qo'llash ilgari surilib kelinmoqda. Biroq tajriba ko'plab darslar hali-hamon an'anaviy va pedagog ehtiyojlaridan kelib chiqib tashkil etilayotganini ko'rsatadi. Ushbu ilmiy izlanishda xorijiy tillarni o'qitishni tashkil etish jarayoniga o'qituvchining qarashlari qay darajada ta'sir qilishi tadqiq qilinadi. Maqolaning ilmiy-metodik yondashuvi boshlang'ich, o'rta, yuqori va oliy ta'lim muassasalarida uzoq yillar mobaynida olib borilgan pedagogik va o'qituvchilarning darslarini kuzatishdan orttirilgan tajribalardan to'plangan kvalitatif va reflektiv yondashuvlarga asoslanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki o'qituvchilarning tashkil etadigan darslari an'anaviy metodlar yordamida yoki zamonaviy metodlar yordamida bo'lishiga ularning o'quvchilar haqida, til o'rganishdagi qiyinchiliklar haqida, darsni nazorat qilish va o'qitish natijalari haqidagi shakllanib qolgan qarashlariga bevosita bog'liq. Izlanishlar ta'kidlashicha, o'qitishdagi uslubiy xilma-sillik metodologik tajribalar yetishmovchili emas, balki qarorlar qabul qilishda pedagoglarga ta'sir ko'rsatadigan aynan shu shakllangan qarashlar mavjudligi inikosidir.

Kalit so'zlar:

o'quvchi ehtiyojlariga qaratilgan, o'qituvchi ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, metodologiya, qo'llash, shakllangan qarashlar, reflektiv.

Аннотация.

Образовательные реформы во многих странах, включая Узбекистан, продвигают современные ориентированные на ученика методики преподавания иностранных языков. Однако практика в классе часто остается традиционной и ориентированной на учителя. В данной статье исследуется, как убеждения учителей влияют на внедрение методов обучения в классах иностранных языков. Основываясь на обширном опыте преподавания в начальной, средней, высшей и университетской школах, а также на долгосрочных наблюдениях за занятиями, исследование использует качественный, рефлексивный подход. Результаты показывают, что убеждения учителей относительно учащихся, языковых трудностей, контроля в классе и результатов обучения сильно влияют на то, применяются ли современные или традиционные методы. В статье утверждается, что методологическое разнообразие в классах в значительной степени является результатом принятия профессиональных решений, основанных на убеждениях, а не на недостатке методологических знаний.

Ключевые слова:

ориентированность на ученика, ориентированность на учителя, методология, внедрение, убеждения, рефлексивный подход.

Abstract.

Educational reforms in many countries, including Uzbekistan, promote modern, student-centered methodologies in foreign language teaching. However, classroom practices often remain traditional and teacher-centered. This paper explores how teachers' beliefs influence the implementation of teaching methods in foreign language classrooms. Drawing on extensive teaching experience across primary, secondary, higher, and university-level education, as well as long-term classroom observations, the study adopts a qualitative, reflective approach. The findings indicate that teacher beliefs about learners, language difficulty, classroom control, and learning outcomes strongly affect whether modern or traditional methods are applied. The paper argues that methodological diversity in classrooms is largely a result of belief-driven professional decision-making rather than a lack of methodological knowledge.

Keywords:

student-centered, teacher-centered, methodology, implementation, beliefs, reflective.

KIRISH. So'ngi o'n yilliklarda xorijiy tillarni o'qitishda muloqot qilish ko'nikmalari, o'quvchi avtonomiyasi va o'quvchi ehtiyojlariga e'tibor qaratilgan darslarni tashkil etish

an'anasi keng rivojlanmoqda. O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash" to'g'risidagi qaroriga ko'ra chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi chet tilida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat ekani belgilab berilgan. Belgilangan kompetensiyalarga tayangan holda chet tili o'qituvchilari malakasini oshirish markazlari faoliyati, metodikaga doir yangi chiqayotgan qo'llanmalar, turli tashkil etilayotgan amaliy pedagogik tajriba almashinuv soatlari keng ko'lamda aynan shu yondashuvlarni rag'batlantirib, muloqotli til o'qitish, interaktiv faol darslar tashkil etish, o'qitishni vazifaga tayangan bo'lishini ta'minlash kabilarni ilgari surmoqda.

Biroq, bu metodlarning barchasi dars chog'ida, amaliy soatlarda qo'llash mobaynida kamchiliklar kuzatilmoqda va to'liqligicha qo'llanilishi muammoligicha qolmoqda. Bu muammolarning zaminida turgan asosiy faktor bu pedagoglarning shakllanib qolgan qarashlaridir. O'qituvchilar til o'qitish metodikalarini mexanik ravishda tadbiq etmaydilar, balki o'zlari ham sezmaganda holda, til o'rganish, talabalar imkoniyati, sinfni boshqarish va ta'lim maqsadlari yuzasidan o'zlarida shakllangan qarashlarga moslashtiradilar. Mana shu shakllangan qarashlarni tushunish nima sababdan ba'zi o'qitish metodlari muvaffaqiyatli va ba'zilari muvaffaqiyatsiz ekaniga oydinlik kiritishga xizmat qilishi bilan dolzarbdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Xorijiy til, ya'ni chet tilini o'qitish mavzusida ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan ammo o'qituvchilarning shakllangan qarashlari bu maqsad jarayoniga qay darajada ta'sir etishi nisbatan tadqiq etilmagan yo'nalish hisoblanadi va samarali o'qitish metodikalarini tizimli tadbiq etish yo'lida izlanishlar olib borilishi kerak. Xorijiy til o'rganilishi haqida tadqiqot olib borgan Sanaqulov va Jo'raboyevlarning e'tirof etishicha "ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi". Demak til o'qituvchi mana shu muhitni yaratuvchisi hisoblanadi. Xorijiy til o'qitish muhiti har qancha haqqoniy bo'lishiga qaramasdan o'quv jarayoni haqqoniy muhitdan uzoq, ya'ni sun'iy bo'ladi, muhit yaratilganida ham, haqiqiy muloqot kutilmagan haqqoniy hodisalarga boy bo'lib, ana shu kutilmagan haqqoniy hayotiy hodisalar yaratilmay qolib ketadi. Pedagog shu hayotiy hodisalarni ham yaratishga qodir bo'lishi kerak. Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari xorijiy tillarni o'rgatuvchi pedagoglar uchun yetakchi ko'nikmalardir. Yunoncha "methodike" so'zidan olingan metodika tushunchasi "biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari yig'indisi" ma'nosini anglatib, uch bosqich: o'quv predmeti, metodik usullar jamlanmasi va nazariyalardan iborat maxsus fan bosqichlaridan iborat bo'ladi.

Xorijiy til o'qitish metodikalari haqida so'z ketganda tadqiqotchi Abdullayeva ta'kidlashicha ilg'or pedagogik texnologiyalar sun'iy intellektga asoslangan darslar, online oyinlar yordamida, moslashuvchan o'qitish tizimlari va VR (virtual reallik) yordamida o'qitishning ommalashuvi chet tili o'qitish metodikalari uchun inqilobiy o'zgarishlar olib kelmoqda [1].

Yuqorida sanab o'tilgan barcha metodikalar dars tashkil etilgan vaqtda qo'llanilishi uchun pedagog ruhan, shu'uran tayyor bo'lishi kerak. O'qituvchi ongida shakllanadigan

qarashlar buni o'zida ifodalab bu mavzu o'qituvchi ong-ostini o'rganish fanida izlanishlar olib borilgan. Shu jumladan, Borg o'qituvchi qarashlariga darslarni olib borishga ta'sir etadigan "shaxsiy, ko'pincha o'qitish, o'qish, o'quvchi va fan haqidagi nazariyalarni o'zida aks ettiradigan" hosila deb ta'rif beradi [2]. Bunday qarashlarni tabiiyki o'qituvchi ilgari o'z boshidan kechirgan o'qish tajribalari, o'qitish ta'limi va tajribasi hamda kasbiy mahoratidan shakllantiradi. Xorijiy tilni o'qitishda ilg'or metodikalarni amalda qo'llashga halaqit beruvchi pedagogning shakllangan qarashlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. To'g'ri talaffuz qilish eng muhim;
2. Grammatikani o'rganishdan boshlash kerak;
3. O'qituvchiga o'quvchi so'zsiz itoat etishi kerak;
4. An'anaviy ta'lim tizimi eng to'g'risi;
5. Ota-onalar bu yangi texnologiyaga qanday qarar ekan.

Demak izlanishlar ko'rsatib turibdiki, metodologik hilma-hillik va ochiqlik pedagogning shaxsiy qarashlari orqali amalga tadbiiq etiladi. Xorijiy tillarni o'qitishda metod qo'llanilishi bu haqiqiy muhitda qo'llanilgan yondashuvlarni nazarda tutadi. Richards va Rodjerslarning fikrlariga ko'ra zamonaviy metodologiya o'zaro muloqot, birga ishlash va tildan maqsadli foydalanish kabi elementlar bilan boyitilgan interaktiv darslarni nazarda tutsa, an'anaviy metodlar markazida o'qituvchi ehtiyojlaridan kelib chiqadigan yaxshilab tushuntirib berish, takrorlatish, xatoga yo'l qo'yimaslik va hamma tomonlarida yuqori ko'rsatkichlar ko'rsatish kabi maqsadlar yotadi. Ammo metodika dinamik va adaptiv xususiyatli tushuncha bo'lib, ta'limni talabga qarab shakllantirish va o'qituvchilardan aynan shu xususiyatlarni e'tiborga olgan holda davom etishlarini talab etadi.

Bu ilmiy tadqiqot kvalitatif va reflektiv yondashuvlarga asoslanadi va xulosalar ta'lim tizimida orttirilgan shaxsiy kuzatuvlar natijasida shakllantirilgan. Maqsad kasbiy qarorlarni qabul qilish jarayonini anglash va xorijiy til o'qitishda darslardagi haqqoniy muhitga baho berish bo'lgani sabab uzoq yillik turli bosqichlarda olib borilgan faoliyat tajribasi, turli o'qituvchilarning qo'llagan metodikalarini kuzatish orqali qo'lga kiritilgan manbalar va bularni reflektive tarzda tahlil qilish maqsadli metodologiya deb hisoblanadi.

TOPILMALAR VA TAHLIL. Ta'limning ketma-ket bosqichlarida xorijiy tillarning o'qitilishini tashkillashtirish va kusatish natijasidagi topilmalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining shaxsiy qarashlari mana shu bosqichlarda foydalanidagan metodikalariga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi tilni yaxshi o'rganishi uchun, pedagog mukammal tushuntirib berishi kerak degan qarashga ega o'qituvchilar, amalda ko'proq an'anaviy tushuntirish va tinglash metodikasi, darsda to'liq nazorat ostida amaliyot qilish va o'qituvchiga markazlashgan mashqlar kabi usullardan foydalanib dars olib borishlari aniqlandi. Maskur o'qituvchilar intizom, natija va muntazam imtihon qilish orqali faoliyatni baholaydilar. Aksincha, tilni faol muhitda qo'llab o'rganish to'g'ri deb hisoblaydigan o'qituvchilar darslarida juft bo'lib ishlab, guruhda mashq qilib, muloqot qilib, o'yinlarga asoslanib, muhit va mavzuga bog'lab o'rgatish metodikalaridan foydalandilar. Bu turli qarash egalari o'quvchilarning hatolarga yo'l qo'yishlari tabiiy hodisa va

o'quvchilarning birgalikda, bir-birini ilhomlantirib mashqlarni bajarishlari ularda o'zlariga ishonchni oshirishadi deb tushunadilar [4].

Ammo boshlang'ich, o'rta, yuqori va oliy ta'lim bosqichlarida xorijiy til o'qitilishi haqqoniy muhitda kuzatilib tahlil qilinishi an'anaviy yoki zamonaviy metodlardan foydalanishda kamchiliklar borligini isbotladi. Ilg'or metodikalar va zamonaviy texnologiyalarni darslarida tadbqiq qilishlariga ko'p o'qituvchilarni ta'lim muassasalari qo'ygan talab va majburiyatlar undaydi, natijada sistematik reja qilinmagan va pedagogika talablarini to'liq qoplamaydigan urinishli darslar tashkil etiladi. Tizim yaxlitligini va davomiyligini qamrab olmagan turli metodikalarni darslarda tadbqiq qilish natijasida o'quvchilarda xorijiy til ko'nikmalari sust yoki rivojlanishsiz qolib ketadi. O'z navbatida, o'quvchi ham tizimli tashkil etilmagan darslarni jiddiy qabul qilmasdan asossiz va natijasiz o'yinlar, interaktiv mashqlarni bajaraveradi, ammo o'qishda ortda qoladi. Bu tendensiya keng tarqalgan holat, xorijiy til o'quvchilarining ko'p qismi bitiruv imtihonlari yoki til ko'nikmalarini tekshirish imtihonlari uchun maktabda olgan bilimlari yetmay qo'shimcha darslar va maxsus kurslarga bo'rib bilimlarini yetkazishga urinishlarida o'z ifodasini topadi.

Baholash tizimi, oliy ta'limga qabul talablari va til ko'nikmalari natijasi kutiladigan faktorlar o'qituvchining shaxsiy qarashlarini shakllantiradigan keyingi muhim kuch sifatida tahlil qilinadi. Ta'lim bosqichlarida xorijiy til o'qitilishi yuzasidan olib borilgan kuzatuvlar natijasi imtixoniga va natijalarga yo'naltirilgan muhit o'qituvchilarni darslarni rejalashtirayotganda interaktiv va boshqa ilg'or texnologiyalarni bilsalar ham natijaga, aniqlikka va ravshanlikka yo'naltirilgan, qoidalarga asoslangan ko'rsatmalarni qo'llashlarini talab etadi. Bu o'z navbatida natijalarni oshirish uchun o'quvchilarga beriladigan malumotlarni imtihonga moslab toraytirilishi va o'qituvchilarni faqat tezlashtirilgan yoki standartlashtirilgan metod va o'quv qo'llanmalaridan foydalanishlariga olib keladi [3].

Ta'lim bosqichlarida kuzatilgan eng yaqqol tendensiya bu o'qituvchilarning boshlang'ich va o'rta ta'limdan yuqori sinflarda keskin metodika o'zgartirishlaridir. Dastavval o'quvchi ehtiyojlariga qaratilgan interaktiv va zamonaviy texnologiyalar yordamida muhit yaratib, mavzuga moslab olib borayotgan metodikalarini pedagoglar yuqori sinflarda standartlashtirilgan, an'anaviy, jiddiy va natijaga qaratilgan, o'qituvchi ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantiriladigan metodikaga qaytaradilar. Darslar asosan fonetika, grammatika qoidalarini chuqur o'rganish, til ko'nikmalarining takrorlash va yod olish orqali davom ettirilishi imtixonlarga tayyorlov maqsadlari natijasida amalga oshiriladi. Bu esa o'qituvchularning an'anaviy metodikalar natija uchun muhim degan shakllangan qarashlarini o'zida ifodalaydi.

Yuqoridagilardan tashqari, metodikalarni tanlash va tadbqiq qilish jarayoniga o'quvchilar soni, turli qobiliyatdagi o'quvchilar, til ko'nikmalarida farqi katta bo'lgan o'rganuvchilar, va yaratilgan resurs va imkoniyatlar kabi ko'plab boshqa faktorlar ham ta'sir ko'rsatadi. Ilg'or o'qitish metodikalari zamon talabi va ehtiyoji bo'lsada shu kabi faktorlar va bu izlanishda kengroq ko'rib tahlil qilib o'tilgan ta'lim bosqichlari talabi va unga mos bo'lmagan ko'nikmalar

va baholash tizimi talabi tufayli shakllangan qarashlari o'qituvchilardan qay holatda nima uslubni afzal ko'rishlarini ko'rsatib beradi [5].

Xorijiy tilni o'qituvchi shaxs o'zi olgan ta'limdan, kasbiy faoliyati davomida orttirgan tajribalaridan, fanga qo'yilgan talablar va baholash tizimi talablari kabi faktorlardan kelib chiqib shakllantirgan qarashlari befosita ular qo'llaydigan metodikalarni shakllantiradi. Ko'rinib turibdiki, ulardagi mahorat qay darajada bu uslublarni joriy etib natijaga erishishlariga ta'sir qiladi. Shu sabablardan o'qituvchi qarashlarini tushunish, ularda shakllangan qarashlar nima ta'sirida kelib chiqqanini aniqlash, tizimli yengilliklar yaratish va keyingi kasbiy rivojlantirish bosqichlarini tuzish chora-tadbirlari uchun juda muhim omildir.

XULOSA. Xorijiy til o'qitish jarayonida ilg'or yoki an'anaviy o'qitish usullaridan qachon, qay tarzda va unumli foydalanishlarini tashkil qilishda o'qituvchilarning shakllangan qarashlari ta'sirini tahlil qiladi va markaziy rol o'ynaydi. Uslubiy xilma-xillik o'qituvchilarga metodika yetishmasligi emas ko'p holatlarda tashqi faktorlar ta'siri ekani va ularning qarashlari natijasida yuzaga kelishi aniqlanadi. Shu bois pedagog malakasini oshirish bosqichlari samarali metodikalar bilan bir qatorda o'qituvchi qarashlarini, zaminida nima borligini aniqlab, buni inobatga olib tashkillashtirishi tavsiya qilinadi. Pedagog qarashlarini anglash va ulardan foydalanish xorijiy tilni o'qitishda barqaror yondashuvlarga va samarali natijalarga olib keladi. Ilmiy izlanish shuni ko'rsatadiki, keyingi bosqichlar pedagog qarashlarini vaqt davomida sistematik kuzatish va tahlil qilishdan iborat bo'lishi kerak. Ta'limga qo'yilgan talablar va imtixon qilib baholash o'rtasidagi muvozanat realliklarni o'z ichiga olishi va zarur metodika hamda qo'llanilayotgan metodikani bir-biriga yaqinlashtirishga harakat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева, А.Е. (2025). Advanced Pedagogical Technologies in Foreign Language Teaching/ Xorijiy til o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalar International multidisciplinary journal for research & development 1(1), 464-468. <https://inlibrary.uz/index.php/imjrd/article/view/72097>
2. Borg, S. (2003). Teacher cognition in language teaching: A review of research on what language teachers think, know, believe, and do. *Language Teaching*, 36(2), 81-109
3. Cheng, L., & Curtis, A. (2004). Washback or backwash: A review of the impact of testing on teaching and learning. *Language Testing*, 21(1), 1-36
4. Ellis, R. (2003). *Task-based language learning and teaching*. Oxford University Press
5. Sanaqulov, Z., & Jo'raboyev, B. (2021). *Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar*. Academic Research in Educational Sciences, 2(4), 523-534

